

BUYUK SARKARDA AMIR TEMUR HARBIY YURISHLARINING OZIQ- OVQAT TA'MINOTI MUAMMOLARI VA YECHIMI

Niyozov Sodiq Raximovich

*O'zbekiston Respublikasi qurolli Kuchlar Akademiyasi Moddiy ta'minot kafedrası
Oziq-ovqat ta'minoti sikli katta o'qituvchisi rezervdagi podpolkovnik, QK xizmatchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temurning harbiy siyosatida oziq-ovqat ta'minoti masalalari tahlil qilingan. Ushbu masala bilan bog'liq tarixiy voqea-hodisalar haqida ma'lumot berilgan.

В данной статье анализируются вопросы продовольственного обеспечения военной политики Амира Темура. Приведена информация об исторических событиях, связанных с данным вопросом.

This article analyzes the issues of food policy provision in the military policy of Amir Temur. Information about historical events related to this issue is provided.

Kalit so'zlar: Amir Temur, harbiy mahorat, ov, Jeta (Mo'g'uliston), oziq-ovqat zaxirasi, sarf-xarajatlar.

Sohibqiron Amir Temurning harbiy mahorati o'z davrida parokanda bo'lgan Movarounnahrni nafaqat birlashtirish balki, tashqi tahdidlarni oldini olib, mamlakatni iqtisodiy va harbiy nuqtai-nazardan qudratga erishishiga asos yaratgan. O'zaro urushlar davrida xarobaga aylangan mamlakat askarlari minglab km. uzoqliklarga katta miqdordagi oziq-ovqat zahirasi bilangina bora olardi. Ammo, bu kabi ulkan xarajatni dastlabki vaqtlarda Movarounnahr aholisi ko'tara olmas, binobarin, Amir Temur saltanati iqtisodiy qudratiga putur yetishi tabiiy bo'lgan. Ammo, Amir Temur ushbu muammoni harbiy yurishlar davrida nafaqat hal qila olgan, balki qo'shnlarni jangovar qobiliyatini o'sishiga ham erishgan.

Tarixiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarda, Amir Temur Mo'g'ulistonga beshinchi yurishi vaqtida (1376/77 yy) cho'lda suv va ovqat zahirasi tugab qolgan. Shunda, Chig'atoy ulusi askarlari suruvli ov qilish orqali qulon, kiyik, tovushqon va boshqa jonivorlarni ovlagan [4, 62]. Bu esa qo'shinni oziq-ovqat bilan ta'minlabgina

qolmasdan, ularni mahoratini oshirishga, o'lja kayfiyatni ko'tarishga xizmat qilgan. Harbiy yurishning muvoffaqiyatli tugashi ta'minlangan. Shuningdek, 1390 yilgi Jeta (Mo'g'uliston) harbiy yurish olti oyga cho'zilgan bo'lib, oziq-ovqat masalasi yuqoridagi kabi hal qilinganligiga oid ma'lumotlar mavjud [2, 129].

Amir Temur va Movarounnahr uchun og'ir kechgan harbiy yurishlardan biri bu, shubhasiz, To'xtamishxonga qarshi kurashlar bo'lgan. Chunki, Oltin O'rda davlati mo'g'ul sulolalari ichidagi eng qudratlisi bo'lib, Movarounnahr uchun asosiy tahdidlardan biri bo'lgan. To'xtamishxonga qarshi yurish vaqtida hozirgi Qozog'istonning Tug'rovut hududida suruvli ov qilish orqali oziq-ovqat muammosii hal qilingan [3, 150]. Bu katta jang oldidan askarlarni mashq qildirish usullaridan biri ham bo'lgan deyish mumkin. 1391 yilgi To'xtamishxon ustiga qilingan harbiy yurish davrida Yo'lanchiq (hozirgi Qozog'istonning Jezqazg'an viloyati) va Atoqabrig'o'y (hoz. Qozog'iston Qustanoy viloyati) orasida qo'shin ocharchilik holatiga tushib qolgan. Bu vaqtda askarlar cho'l ichida to'rt oydan buyon yurgan bo'lib, oziq zahirasi tugagan bir qo'yning narxi 100 kepakiyga yetgan. Askarlarga sahroda yovvoyi tovuq tuxumlari, yesa bo'ladigan o'tlar yig'ish buyurilgan. Oltin O'rda hududlariga yaqinlashilganda esa, 1391 yil 6 may kuni qo'shinga suruvli ov solish buyrug'i berilgan. Cherik o'rab olgan yer shu darajada katta bo'lganki, ikki kundan so'ng halqa torayib kelgan. Asosan qulon, kiyik, tovushqon ko'p ovlangan. Ayniqsa kiyiklarni mo'g'ullar qundg'ay degan, dasht eli "belan" degan turi ko'proq ovlangan. Yazdiy bu kiyik turini govmishdan kattaroq bo'lishini yozib qoldirgan [2, 131].

Nizomiddin Shomiy ham bu suruvli ov haqida ma'lumot berib, katta o'lja bo'lganligini, ularning semizini olib, orig'ini qo'yib yuborishlarini ta'kidlagan. Biroz mubolag'aga berilib, ayrim ohular kattalikda buqadan qolishmagan [3, 156], –degan jummalarni ham ishlatgan.

Damashq shahrining fath etilishi jarayonida (1401 y) ham suruvli ov qilingan bo'lib, ov o'ljalari ko'p bo'lganligidan, jangchilar jonivorlarni qo'llari bilan ham tutganliklarini qayd etgan [3, 302].

Amir Temur yetti yillik harbiy yurishlardan qaytish vaqtida, Qorabog'da (1404 y) ziyofat tashkil etish maqsadida (aslida uzoq yo'lda boshqa to'xtab vaqt yo'qotmaslik), ov

uyushtirganligi, “Sahro jonivorlari qonidan sabzazorlarni lolazorlarga aylantirdilar”, – degan jumla esa ov ko‘lamini katta bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ov jarayonida, Amir Temur farmoniga muvofiq har bir qo‘shin bo‘linma o‘zi turgan joydan jirga (suruvli ov uchun halqa) olib, jonivorlarni Aqdon yerlariga haydash buyurilgan. Natijada katta miqdordagi jonivorlar tor halqada qolib ketish oqibatida Aqdon yerlarida misli ko‘rilmagan ov jonivorlari to‘plangan. Ov mo‘l bo‘lganligi sababli, sahro yirtqichlari, turli o‘laksaxo‘rlarga ham jonivorlar qoldiqlari qolib ketganligini ifodalovchi fikr-mulohazalar mavjud [3, 369]. Ov qilib oziq zahirasi yig‘ishdan tashqari qurut, qattiq, quritilgan go‘sh t kabi mahsulotlar ham mavjud bo‘lgan.

Ispaniya elchisi Gonsales Rui de Klavixo; Chig‘atoylarni harbiy safarlarda chidamli deb, nonsiz faqatgina sut bilan go‘sh tni yeb kun ko‘rishini yozgan. Borida go‘sh tni haddan tashqari ko‘p iste‘mol qilishadi, yo‘g‘ida suvga qattiq qo‘shib, qaynatib ichish bilan kifoyalanadilar. Bu ovqatni ular quyidagi yo‘sinda tayyorlashadi. Ulkan doshqozonni suvga to‘ldirib, suv obdon qaynagach, pishloqqa o‘xshab ketadigan qattiqni sizdirib tayyorlangan suzmani, tog‘orada ilimliq suvda chog‘ishtirishadi va doshqozonga ag‘darishadi. Bu suzma shu qadar nordonki, ta‘mi sirkaga o‘xshaydi. Shundan keyin xamirni tola-tola qilib kesishib, uni ham doshqozonga tashlashadi. Xamir kesimlari qozonda biroz qaynatilgach, olovni o‘chirishadi. So‘ng bu go‘sh tsiz ovqatni tog‘oralarga suzishib, nonsiz mazza qilib ichishadi. Bu ularning har kuni eng sevimli iste‘mol qiladigan ovqatidir. Ushbu va boshqa ovqatlarni tayyorlash uchun tayyor o‘tin bo‘lmaydi shu sababli yoqish uchun tezakdan foydalanishgan. Men sizga bayon etgan taomni “Pax” (qatiqli kesgan osh) deb ataydilar [4, 136], - degan jumalarni keltirib o‘tganligini ko‘rishimiz mumkin.

Amir Temurning amalga oshmagan Xitoy harbiy yurishiga bir necha yillar puxta tayyorgarlik ko‘rilgan bo‘lib, Sharqiy Turkistondagi Yulduz vohasi, hozirgi Qirg‘iziston hududidagi Ashpara atroflarida yo‘l bo‘ylarida g‘alla ekishni yo‘lga qo‘yilgan va bu ortga qaytish davridagi oziq-ovqat mahsuloti zahirasini to‘ldirishi lozim bo‘lgan. Shuningdek, bo‘g‘oz tuyalarni ham o‘zlari bilan olib ketganlar, chunki, ularning suti qo‘shinni ovqat zahirasi bilan ta‘minlashi lozim edi [2, 294].

Xullas, Amir Temur va uning harbiy yurishlari davrida harbiy qo‘shin uchun sarf-xarajatlar Movarounnahr aholisi uchun soliq qiyinchiliklarini tug‘dirmasligiga imkon qadar qat’iy amal qilingan. Oziq-ovqat va sarf-xarajatlar mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda yechimi topilgan. Bunga esa, Amir Temurning donoligi, topqirligi, uzoqni ko‘ra olish salohiyati bilan erishilgan deb hisoblash mumkin. Ushbu muammoni o‘rganish va tadqiq etish esa bugungi kunning muhim masalalaridan biri deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gonsales, Ru de Klavixo. Samarqandga–Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406) [Text] Gonsales, Ru de Klavixo.; Mas’ul muharrir: Muhammad Ali; So‘zboshi va izohlar muallifi M.Safarov; tarj O.Tog‘aev. –T.: O‘zbekiston, 2010. –208 b.
2. Yazdiy, sharafuddin Ali. Zafarnoma // So‘z boshi, tabdil, izohlarva ko‘rsatgichlar muallifi va nashrga tayyorlovchilar: A.Ahmad, H.Bobobekov: Mas’ul muharrir B.Eshpo‘latov. Nashrlar va matbaachilar guruhi: I.Shog‘ulomov va boshqalar // –T.:Sharq, 1997. –384 b.
3. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma / Nizomiddin Shomiy. –T.: Fan, nashriyoti, 2019. –544 b. 4. Ru J.-P. Tamerlan. / Jan Pol-Ru; per s fr. Ye.A. Sokolova; poslesl. Ye.L. Yegorova; pril. –4-ye izd. –M.: Molodaya Gvardiya, 2007. –295 [9]s.
4. B.Ahmedov.“Amir Temur haqida hikoyalar”.Toshkent. Yozuvchi.1998-yil.4-bet.
5. I.A.Karimov.“Tarixiy –xotirasiz kelajak yo‘q”. Toshkent.Sharq. 1998-yil.9-16-bet.
6. Ziyodulla Muqimov.“Temur tuzuklari”. Samarqand. 2008-yil.33-bet.